

Filialimizdagi faoliyat

2021-yil 5-mart kuni institutimizning Qarshi filiali qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan akademik litseyining bitiruvchi sinf o'quvchilari institutimizga tashrif buyurishdi. Ular uchun "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakultetida kasbga yo'naltirishga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi. O'quvchilarga institut haqidagi rolik namoyish etildi.



Fakultet dekani R.Xakimov institutda tayyorlanayotgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, institutning xalqaro aloqalari to'g'risida hamda talabalarning bilim olishi, yuqori malakali oliy ma'lumotli kadrlar bo'lib yetishishi uchun yaratilgan sharoitlar to'g'risida ma'lumotlar berdi.



O'quvchilarda institutga kirish uchun qaysi fanlarga e'tiborni kuchaytirish kerakligi, tayyorlanayotgan mutaxassislarni kelajagi to'g'risida qator savollar tug'ildi. Berilgan savollarga fakultetning dekani, malakali professor o'qituvchilari tomonidan atroflicha javoblar olishdi. O'quvchilar institut Axborot-resurs markazi, laboratoriyalari, o'quv binolari, sport sog'lomlashtirish majmuasi bilan tanishdilar.

TIQXMMI matbuot xizmati